

«DUNYONING ISHLARI» QISSASIDA HIKOYACHI QAHRAMON OBRAZI**Beshboyeva Fotima Shomurod qizi**

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589159>

ANNOTATSIYA. Maqolada O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asari xususida so‘z yuritiladi. Hikoyachi sifatida nega personaj nutqi tanlangani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: qissa, muallif, hikoyachi, personaj, muallif nutqi, hikoyachi nutqi, novella, kechinma.

Taniqli adib O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasi kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan asardir. Unda asar voqealari muallif nutqi bilan emas, balki personaj nutqi, ya‘ni hikoyachi qahramon tilidan hikoya qilinadi.

«Dunyoning ishlari» bir qarashda avtobiografik qissaga o‘xshaydi. Unda muallif o‘z onasi to‘g‘risida, urush yillarida kechgan bolaligi to‘g‘risida so‘z yuritadi. Lekin yozuvchining asosiy niyati o‘zi uchun eng aziz siymo – Onaning portretini chizish, uning hayot yo‘lini bayon etish, sha’niga maqtovlar aytib, xotirasini abadiylashtirish va shu yo‘l bilan farzandlik burchini o‘tashdangina iborat emas. Aks holda «Dunyoning ishlari» onaga bag‘ishlangan ko‘pgina asarlardan farq qilmaydigan jo‘ngina asar bo‘lib qolardi». Zero, unda ona degan buyuk zotga xos barcha sifatlar mujassam. «Dunyoning ishlari» falsafiy umumlashmalarga boy, oddiy inson hayotining turli muhim jihatlari haqida o‘ylashga chorlaydigan, yuksak hissiy pardalarda yozilgan lirik-psixologik qissadir. Muallif bir vaqtlar o‘zbeklar hayotida keng tarqalgan, hozir ham tez-tez uchrab turadigan oddiy, maishiy voqealarni tasvirlar, shu tasvir jarayonida Ona obrazini chizar ekan, xalq hayotining negizi – ma‘naviy axloqiy e‘tiqodlarni badiiy tahlil etishni bosh maqsad qilib qo‘yadi».

«O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasi go‘zal tili va badiiy jozibasi bilan alohida e‘tiborga sazovor. Uni zahmatkash, mehribon, kamtar, insonparvar, pokiza va mushfiq o‘zbek onalari sha’niga bitilgan samimiy doston deb atash mumkin. Adabiyotda onalar mavzusida ko‘p asarlar bitilgan. «Dunyoning ishlari» ularni aslo takrorlamaydi, tubdan farq qiladi. Asar mazmun-mundarijasini hisobga olmaganda ham, shaklning o‘zi bilanoq badiiy yangilik yaratgan». Qissa



o'ttiz hikoyadan iborat bo'lib, har bir hikoya tugal, mustaqil mazmunga ega. Ayni damda bir-biri bilan o'zaro bog'liq, biri ikkinchisini to'ldiradi. Bosh qahramon Ona obrazini ochishga yo'naltirilgan hikoyalar birlashtirilib, yaxlit syujet chizig'i hosil qiladi. Yozuvchi ko'proq bir farzandning yo'l qo'ygan xatolari jabrini ruhan tortish jarayoni, ona qadriga o'z vaqtida yetmaslikning oqibatlari, umuman, farzandning ruhiy kechinmalari tavsifi, onaga bo'lgan cheksiz mehrning taftini berishda yozuvchi shu inson nutqidan foydalanishni ma'qul ko'rgan.

Qissadagi ilk hikoyalar muallifning ulg'aygan, xatolarini e'tirof etgan davrini o'z ichiga oladi. «Oq, oydin kechalar» hikoyasida shunday deyiladi: «Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi. Hovlimizda bir tup bodom bo'lardi. Erta bahorda qiyg'os gullardi-yu hech meva tugmasdi. Onam: «Bodom yolg'iz bo'lgani uchun meva qilmaydi», deb tushuntirardi...». Asar ekspozitsiyasidayoq ona obrazidagi individual xususiyat ko'zga tashlanadi. Ya'ni, ona sira ham yolg'izlikni xush ko'rmaydi. U yolg'izlikda inson hech qachon baxtli bo'la olmaydi, degan aqidaga bir umr amal qilib yashaydi. Shu bois bu aqidani bodom daraxtiga nisbatan ham shu ma'noda qo'llaydi. Mana shu mantiq butun asar mazmuniga singdirilgan. Hikoyachi qahramon bu o'rinda o'z onasi haqidagi real haqiqatlarni tahlil qilib boradi va o'ziga xos xulosalarga keladi. Qissadagi «Ikki afsona» hikoyasida muallif kiritma voqealar sifatiga «Oftob» va «Obkash haqida»gi afsonalarni ona tilidan beradi. Ular bolaga «cho'pchak» sifatida so'zlab beriladi. Aynan mana shu hikoyadan boshlab hikoyachi qahramonning kichik yoshdagi bola sifatidagi ko'rinishi namoyon bo'ladi. Hikoyalash tarzi ham mulohazakor yoshi o'tgan insonniki emas, o'sha tasvirlanayotgan bolaning xarakteri, fikrlash tarziga moslangan. «Oftob haqidagi afsona»da uning yer yuziga chiqishni xohlamasligi, chunki unda yomon odamlar ko'pligi va ozodalik yo'qligidan nolishi tasvirlanadi. Lekin Tangri uni iflos narsalarni supuruvchi odamlar borligi bilan, nuridan ko'proq sochsa, yomon odamlar ham kamayib ketishi bilan tinchlantiradi va har kuni chiqishga undaydi. Ikkinchi afsonada onasini xafa qilgan bola bir kampirga obkashdagi suvini ko'tarishda yordam bermoqchi bo'lganida o'sha obkash bilan rosa savalagani, sababini so'raganda o'z onasini ranjitgan odam birovni xursand qilolmasligi bilan izohlagan. Mana shu ikki afsonadagi hayot haqiqati «katta yoshdagi hikoyachi qahramon»ga keyinchalik ma'lum bo'lgani, bunday oddiy hayot haqiqatini anglab yetish uchun katta miqdordagi vaqt va ortga qaytarib bo'lmas yillar kerak bo'lganini e'tirof etadi.



Qissaning «Eng og'ir gunoh» hikoyasi «kichik yoshdagi» hikoyachi qahramon tilidan so'zlanadi. Unda bir do'ppi to'la yong'oq yutgan bola uyiga kelib, onasiga ularni berib talqonga qo'shishni so'ragani, onasi talqon qilib bo'lgach, uning esiga «soqqa yong'og'i» tushib qolib, uning chaqib yuborilganini sezgach, onaga zarda qilib, qilgan talqonini yerga ag'dargani haqida so'z boradi.

– «Non-ku, bu ahmoq! Gunoh bo'ladi-ku! ... Onam boshini ko'tarib menga qaradi. Ko'zlarida alam, ta'na bor edi» (18-bet). Keyingi voqealar jarayonida ona bolasining bu aybini o'z bo'yniga olib, xo'jayinining g'azabiga uchragani ko'rsatiladi. Qissada do'sti xiyonatidan g'azablangan va unga musht tushirib uydan haydagan talaba tilidan hikoya xulosasi bayon qilinishidan avval tabiat tasviri qahramon ruhiyatiga mos tarzda bayon qilinadi. Hikoya xulosasi esa quyidagicha: «Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga! Biron marta, aqalli bir marta xiyonat qildimi? Har kim har kimga xiyonat qilishi mumkin. Faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir» (20-bet). Bunday onaning o'ziga xos yana bir fazilati farzand tomonidan e'tirof etiladi. Ushbu e'tirofni asoslash uchun uchta o'ziga xos hikoyalardan foydalaniladi. Uchala hikoyada ham har xil ko'rinishdagi xiyonat tasviri berilgan. Ona bolasi uchun hamma narsaga tayyor, faqat farzandi oldida bo'lsa bas, degan xulosaga kelish mumkin.

Qissadagi «Surat» hikoyasida esa oddiy hayotiy voqelik, bolaning onaga bee'tiborligi tasvirlangan: « – Suratga tushaylik, dedi to'satdan. Ajablandim. – Qo'ysangiz-chi oyi. Shunday dedim-da, chiqdim ketdim. Oradan ikki hafta o'tdi-yu...» (27- bet). Shunday qisqagina dialogda onaning birgina kichik istagi bayonida uning butun hayoti, orzulari aks etgan, ya'ni ona o'g'lining yodida, nevaralari yodida bir umr qolish istagini payqash qiyin emas. Bu holat farzand uchun bir umrlik armon bo'lib qoldi. Bunday hissiyot tavsifini muallif nutqi bilan, yozuvchi tilidan berish to'g'ri bo'lmaydi. Buni personajning o'z tilidan bayon qilish yozuvchiga muvaffaqiyat olib kelgan. Chunki har bir kitobxon hikoyachi qahramonning ona to'g'risidagi mulohazalariga, chiqargan xulosalariga, falsafiy mushohadalariga diqqat bilan razm soladi. O'z qalbidan his qilib ko'radi. Ayrimlari o'ziga yetarli xulosalar chiqarib, afsuslanishga olib keladigan holatlarning oldini olishga urinishi ham mumkin.



«Dunyoning ishlari» qissasiga joziba baxsh etgan omillardan biri – muallifning samimiyati. U qissaning biron joyida sun'iylikka yo'l qo'ymaydi, ovozini ko'tarmaydi, hayqirmaydi. U onasiga teran muhabbatini ham, poyonsiz hurmatini ham haqqoniy ifodalaydi. Ayni chog'da, kitobxonlardan o'z xatolarini ham yashirmaydi. Muallif onasi hayotligida uni yetarli e'zozlamagani uchun taassuf tuyg'ularini ham oshkora tasvirlaydi. Muallif bularning barchasidan muayyan xulosalar chiqaradi va ularni o'zining eng iztirobli o'ylari sifatida kitobxonga havola etadi» (28-bet).

Xullas, «Dunyoning ishlari» qissasida hikoyachi qahramon – muallif aynan shu usulni, ya'ni personaj tilida novellalarni hikoya qilganligi sababli ham muvaffaqiyatga erishgan. Chunki onaga bo'lgan cheksiz ehtirom va mehr ifodasida yozuvchining neytral nutqidan ko'ra personaj nutqi ma'qul keladi. Asar saviyasi ham aynan kechinmalarning haqqoniy ifodalangani uchun ham yuqoridir. Ushbu qissa – lirik qissa bo'lib, uni o'qigan kitobxon albatta, ta'sirlanadi, uning tarbiyaviy jihatlarini o'rganadi, undagi voqelikdan o'ziga zarur xulosa chiqara oladi, degan umiddamiz.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи таркибида лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.¹

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.²

¹ Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

² Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.



Корпус лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.³

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.⁴

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris “Devonu lugotit turk” in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.⁵

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.⁶

This article covers the main place of small business and business in today's market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.⁷

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг

³ Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

⁴ Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

⁵ Bakhriddinova, B. M. (2020). “DEVONU LUGOTIT TURK” AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

⁶ Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

⁷ Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.



ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.⁸

Badiiy adabiyotning qamrov darajasi keng sanaladi. Zero undagi janrlarning har biri insonning kamoloti uchun xizmat qiladi.⁹

Ushbu maqolada vatanparvarlik va millatparvarlik kabi axloqiy tushunchalar, hamda ularning mazmun mohiyati Somerset Moem qalamiga mansub bo'lgan "Bo'ysunmagan" ("The Unconquered") deb nomlangan hikoyaning syujeti va bosh qahramonlarning xarakterini tahlil qilish orqali ochib beriladi¹⁰

The article examines the role of dictionaries and their content, and, in particular, defines the role of explanatory dictionaries, from their compilation to their semantic meaning. Examples of lexical units and their meanings are given. Attention is drawn to the structure of explanatory dictionaries as a constituent part of the dictionaries as a whole.¹¹

In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.¹²

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.¹³

⁸ Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁹ Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>

¹⁰ Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

¹¹ Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.

¹² Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

¹³ Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.
8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>
9. Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>
10. Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>
11. Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.
12. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.
13. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.